



2025-yil 9-oktabr

Brifing: “O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda Davlat xaridlari doirasida tuzilgan 2518 ta shartnomaning barchasiga korrupsiyaga qarshi kurashish talablari kiritildi

“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida 2025-yil 9 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tamiz.

2025-yilning 9 oyi davomida “O‘zkimyosanoat” AJ hamda tarmoq korxonalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar amaldagi qonunchilik va ichki normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etildi.

Hisobot davrida komplayens nazorati hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan tadbirlar “O‘zkimyosanoat” AJning ijro apparati, shuningdek “Maksam-Chirchiq” AJ, “Ammofos-Maksam” AJ, “O‘zkimyosanoatloyiha” AJ va “O‘zkimyoiampeks” MCHJda amalga oshirildi.

Shu davrda “O‘zkimyosanoat” AJ va unga qarashli korxonalarga ishga qabul qilingan 260 nafar yangi xodim manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida tekshiruvdan o‘tkazildi.

Bundan tashqari, 97 nafar rahbar xodim va korrupsiyaga qarshi ichki tuzilmalar mutaxassislarining malakasi oshirildi. Jumladan:

67 nafar rahbar xodim ISO 31000:2018 — “Xavflarni boshqarish” xalqaro standarti bo‘yicha o‘quv kurslarini tamomladi;

30 nafar korrupsiyaga qarshi ichki tuzilma xodimi “Korrupsiyaga qarshi virtual akademiya” portali orqali “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining samarali ishlashini ta‘minlash” mavzusidagi chuqurlashtirilgan kurslarda o‘z malakalarini oshirdilar.

Korxonalarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan 18 dan ortiq seminar va davra suhbatlari tashkil etilib, ularda 820 nafardan ziyod xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish masalalari bo‘yicha nazariy bilimlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, joriy yilning o‘tgan to‘qqiz oyi davomida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar “E-Antikor.uz” elektron platformasiga 5 ta yo‘nalish va 29 ta maxsus indikator bo‘yicha

yuklandi.

2025-yil iyul va avgust oylarida "Maxam-Chirchiq" AJ hamda "O'zkimyoimpeks" MCHJ xalqaro "CERT International" akademiyasi tomonidan o'tkazilgan auditdan muvaffaqiyatli o'tib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi nufuzli ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatiga qayta munosib deb topildi.

Davlat xaridlari doirasida hisobot davrida 2 518 ta xo'jalik shartnomasi tuzilib, barchasiga korrupsiyaga qarshi kurashish talablari kiritildi.

O'tgan davrda "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining ishonch aloqa kanallari orqali jismoniy va yuridik shaxslardan 380 ta murojaat kelib tushdi, shundan 12 tasi korrupsiyaga oid bo'lib, barchasi bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazildi. Uning natijasida 10 nafar xodimga nisbatan intizomiy choralar ko'rildi.

Tizimda o'tkazilgan 56 ta rejali tekshiruv natijasida 25 ta holat yuzasidan to'plangan materiallar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Ayni paytda 20 ta holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan, 5 ta holat yuzasidan tergov harakatlari olib borilmoqda.

2025-yil 9 oyi mobaynida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar sohaga daxldor faoliyatda ochiqlik, mas'uliyat va halollik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/briefing-uzkimyosanoat-azh-va-uning-tarkibiga-kiruvchi-korxon>